

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINING ROLI

Musayeva Shahzoda Ibrohimovna

*O‘zb. Res. Jamoat xavfsizligi universiteti “Tillarni o‘rganish” kafedrasini
o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola lingvistik kompetensiya va madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi o‘rtasidagi aloqalar hamda kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasida ingliz tilini o‘qitishning funksiyalari haqida muhokama qiladi. Maqolada ingliz tili o‘qitishda ingliz tilini o‘rganuvchilarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini qanday rivojlantirish, shuningdek ingliz tili o‘qitishning muhim maqsadlarini tushunib yetishni tadqiq qiladi.

Kalit so‘zlar: ingliz tili, ingliz tilini o‘qitish, lingvistik kompetensiya, madaniyatlararo muloqot, kompetensiya.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi haqida gapirar ekanmiz avvalo, kompetensiya so‘zining tom ma’nosiga e’tibor qaratishimiz lozim. Shunday ekan “Kompetensiya” tushunchasi lotincha “competere” – *mos kelmoq* so‘zidan olingan bo‘lib, “**o‘z kasbiga yaroqli, loyiq**” degan ma’noni anglatadi.[1] Bundan tashqari ushbu so‘z keng ma’noda umumiyligi yoki muayyan keng qamrovli masalalarni yechishda mavjud bilim va ko‘nikmalarni amaliy tajribada qo‘llay olishni ham anglatadi. Demak, kompetensiya –kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat, egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliyotda qo‘llay olish layoqatidir.

Tilshunoslik tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak “kompetensiya” atamasi ilk bor XX asr o‘rtalarida N.Xomskiy tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, tildan foydalanish jarayonida faoliyatga yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar majmui sifatida baho beradi. Uning izdoshlari bo‘lgan ba’zi bir olimlar esa ushbu tushuncha kompetensiyaviy yondashuv sifatida talqin etilgan. Bunda kompetentlilik va kompetensiyaviy yondashuv tushunchalari ta’limda natijaviylikni ko‘rsatuvchi omillar sifatida qayd etiladi.

“Kompetentlik” – subyekt va uning faoliyatiga berilgan tavsif bo‘lib, u ko‘pincha, turli ma’lumotlar beradigan lug‘aviy-me’yoriy adabiyotlarda “biror-nima haqida fikr yuritish, o‘z fikr-mulohazasini bildirish imkonini beradigan bilimlarni chuqr egallahsh” deya ta’riflanadi. Boshqacha aytganda, kompetentlik –avvalambor, ishni bajarish (maqsadga erishish) uchun nimalar zarur ekanligini tushunishning chuqr bilimlarga asoslangan darajasidir. Kasbiy kompetentlik esa kasbiy faoliyatga oid masalalarni hal etishda bilim va ko‘nikmalarni amaliy tajribada samarali qo‘llay olish mahoratidir. R.P. Milrudning fikricha: “... kompetensiya –shunday alohida faoliyat sohasiki, bunda individ(shaxs) yuqori darajadagi o‘zlashtirilgan yutuqlar strategiyasini namoyish qiladi. Tajriba, mavjud bilimlar va doimiy o‘z ustida ishlash asosida atrofdagi borliqning turli sohalarida qanday xatti-harakatlarni amalga oshirish kerakligi haqidagi strategiyalar, malaka va amaliy bilimlar olish maqsadida amalga oshiriladigan xatti-harakatlardir. Demak, kompetentlilik –shakllangan malaka va egallangan amaliy bilimlar asosida muvaffaqiyat strategiyalarini o‘zlashtirish hisobiga samarali faoliyat yuritish qobiliyatidir [2]. Shuning uchun kompetentlikni zamonaviy tushunish insonda ham o‘z imkoniyatlarini ishga solish va muayyan funksiyalarni bajara olish qobiliyati hamda unga mustaqil va mas’uliyatli harakat qilishi uchun imkon beradigan ruhiy holatlarning mavjudligini o‘z ichiga oladi.

O‘quv jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish muammosi o‘z tarixiga ega bo‘lib, kelib chiqishiga ko‘ra, N. Xomskiy, R. Uayt, J. Raven, D. Xayms kabi chet mualliflar tadqiqotlariga borib taqaladi.

Bizning respublikada ta’limga kompetensiyaviy yondashuvning joriy qilinishi ushbu yondashuv asosida Davlat ta’lim standartining takomillashtirilishiga, uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqich o‘quv dasturlari va darsliklari mazmuniga o‘zgartirishlar kiritilishiga olib keldi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirilgan va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2017 yil 8 aprelda tasdiqlangan Davlat ta’lim standartida umumiy o‘rta ta’lim bosqichida o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda tayanch va xususiy kompetensiyalar shakllantirilishi talablari belgilab berilgan. Tayanch

kompetensiyalar sifatida kommunikativ kompetensiya, axborotlar bilan ishlash kompetensiyalari, o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyalari, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalari, milliy va umummadaniy kompetensiya, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyalari belgilangan. Bugungi kunda barcha fanlar bo‘yicha Davlat ta’lim standartlarida kompetensianing turlari aks ettirilgan va xususiy fanga oid kompetensiyalar ishlab chiqilgan. Davlat ta’lim standartlarida, xususan, chet tillarni o‘qitish bo‘yicha quyidagi kompetensiyalar belgilangan:

Lingvistik kompetensiya ya’ni bunda til materiali (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglab-tushunish, gapishtish, o‘qish va yozish) bo‘yicha ko‘nikmalarini egallash nazarda tutiladi. Sotsiolingvistik kompetensiya so‘zlovchining biror-bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash imkonini yaratadigan kompetensiya hisoblanadi. O‘rganilayotgan chet tilda kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo‘lganda takroran so‘rash, uzr so‘rash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadigan kompetensiya bu pragmatik kompetensiyadir.

Kompetentlilik yondashuvining shakllanishi ta’limni taraqqiy ettirish talabi, zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga moslashish yo‘llarini qidirish bilan bog‘liq hisoblanadi. Kompetentlilik yondashuvi shaxsda bilimlardan tashqari amaliy vazifalarni hal etish qobiliyatini shakllantirishga intilishini ham aks ettiradi. Kasbiy faoliyat mazmunining o‘zgarishi, yangi texnologiyalarni qo‘llash, o‘zgacha miqyosdagi tayyorgarlikni, umumta’lim asosi maktabdanoq shakllantiriluvchi kasbiy tayyorgarlikni taqozo etadi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan ushbu kompetensiyalar talabalarning chet tilidagi kommunikativ komptensiyalarini shakllanishga olib kelishi ko‘zda tutiladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, kommunikativ kompetensiya ham tayanch kompetensiyalar asosida turadigan ham xususiy kompetensiyalar jamuljamidan kelib chiqadigan, kompetentlikni ta’minlab berishga xizmat qiladigan asosiy kompetensiyadir. O‘z navbatida kommunikativ kompetentlilik, lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv,

strategik, ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy kompetensiyalarni kabi kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy-madaniy yondashuvning til ta’limidagi umumiy maqsadi kursantlarni chet tili vositalari orqali ko‘p madaniyatli dunyoda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish orqali faol hamkorlikka tayyorlashdir. Til muayyan ijtimoiy-madaniy voqelikni aks ettiruvchi vosita bo‘lib, uni egallash orqali biz madaniyatga tegishli olam manzarasini ham egallaymiz. Til bilishning o‘zi aslida madaniyat belgisining bir ko‘rinishidir. Barchamizga ma’lumki bizning buyuk bobokolonlarimiz ham qadimdan ikki, uch tilni bilganlar. Bu esa ularga boshqa millat vakillari bilan erkin muloqot qilish va hamnafas yashash imkonini bergen. Shuning uchun ham, chet tilini o‘qitishda kursantlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini shakllantirib borish nihoyatda muhim bo‘lib, bu nafaqat chet tilini kerakli darajada chuqur o‘zlashtirishga, balki turli mamlakatlar xalqlari o‘rtasida keng miqyosli ijtimoiy-madaniy munosabatlarni o‘rnatishga ham samarali ta’sir ko‘rsatuvchi vositalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi davrda chet tillarni o‘qitishning asosiy maqsadi faqat lisoniy bilimlar, ko‘nikma va malakalarni yetkazish va hatto mamlakatshunoslikka oid ma’lumotlarni risoladagidek o‘rganishdangina iborat bo‘lib qolmasligi lozim. Bu haqda Ter-Minasova fikri quyidagicha: “...pedagogik jarayonda madaniyatlararo muloqotda ishtirok eta olish qobiliyati asosiy o‘rinni egallashi kerak. Bu ayniqsa hozir juda ham muhim, «xalqlar, tillar, madaniyatlarning bir-biriga aralashuvi mislsiz keng quloch yoyganida – o‘zga madaniyatlarga bag‘rikenglikni tarbiyalash, ularga nisbatan qiziqish va hurmat uyg‘otish hamda o‘zida o‘zga madaniyatlardagi ortiqchalik, yetishmaslik yoki o‘xshamasligidan g‘ashlanish hissini yengish kabi muammolar ko‘ndalang turadi. Aynan shu munosabat bilan madaniyatlararo kommunikatsiya masalalariga nisbatan har tomonlama qiziqish uyg‘ongan»[3].

Darhaqiqat, bugungi kunga kelib chet tillarini o‘qitishning ijtimoiy-madaniy konteksti o‘zgargan deb ayta olamiz. Xalqaro muloqot tillarini o‘qitishning hozirgi bosqichida tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyatini bilish tildan foydalanishda muhim ahamiyatga ega. Tilni madaniyat bilan birga o‘rganish zamonaviy til

ta’limining asosiy yo‘nalishi hisoblanadi va buni amalda unumli ishlata olish katta muvaffaqiyatlarga olib keladi. Tilni o‘rganilayotgan jamiyat madaniyatidan uzilgan holda o‘rganish mumkin emas, til va madaniya bu har doim yonma-yon ishlatiladigan bir butun tushunchadir. Chunki til jamiyat taraqqiyoti mahsuli va uning madaniyati tashuvchisidir. Lisoniy kompetentlik yetarli yoki hatto yuqori darajada bo‘lganida ham nolisoniy borliq haqidagi bilimlarning yetishmasligi bois chet tilida muloqot samarasi pasayib ketishi mumkin.

A.V. Xutorskoy qadriyatli-mazmunli, umummadaniy, o‘quv-o‘rganish, informatsion, kommunikativ, ijtimoiy-mehnat, shaxsiy o‘z-o‘zini takomillashtirish kompetensiyalarni ham o‘rganib ularni farqlab chiqadi. Muallifning ta’kidlashicha, bunday asosiy kompetensiyalar ro‘yxati «umumiylar ta’limning bosh maqsadlari, ijtimoiy tajriba va shaxs tajribasini tarkibiy tuzilishi hamda o‘quvchiga zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tajriba, yashash va amaliy faoliyat yuritish malakalarini egallahga imkon beruvchi asosiy faoliyat turlariga asoslanadi»[4] deb qayd etadi. Boshqa bir olim D.F. Ilyasov esa chet tilini o‘quv fani sifatida o‘rganishda asosiy kompetensiyalar jumlasiga quyidagilar kiritadi:

- ijtimoiy kompetentlilik – biror bir jamiyatda boshqa odamlarning qarashlarini hisobga olgan holda harakat qilish qobiliyati;
- predmetli kompetentlilik, ya’ni tilni bilim olish va muloqot vositasi sifatida anglash qobiliyati;
- informatsion kompetentlilik – axborot texnologiyalarini egallah qobiliyati, har qanday turdagiligi axborot bilan ishlay olish hamda axborot texnologiyalarini tilni o‘rganishda qo‘llay bilish qobiliyati;
- proyektivli kompetentlilik – o‘z mahsulotini yaratish, individual va jamoaviy faoliyatda qarorlar qabul qila olish va o‘z qarorlari uchun mas’uliyatli bo‘lish qobiliyati;
- ijtimoiy-madaniy kompetentlilik – umumbashariy odob-ahloq, madaniy o‘ziga xoslik va xuquqiy bilimlarni qo‘llagan holda o‘zining va o‘zgalarning madaniyatiga muvofiq ravishda harakat qilish qobiliyati;

- kommunikativ kompetentlilik, ya’ni o‘zga tildagi muloqot vositalari yordamida o‘zgalarni tushunish va ularga tushunarli bo‘lish qobiliyati[5].

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish ijtimoiy-madaniy adaptatsiya (moslashuv), yangi madaniyatga shaxsning integratsiyalashuvini taqozo etadi.[6] Ko‘pchilik tadqiqotchilar ijtimoiy-madaniy kompetensiyani mamlakatshunoslik va madaniyatshunoslik fanlariga bog‘liq holda talqin etadilar. Lingvomadaniyatshunoslik fanining yuzaga kelishi ham bu qarashlarni yuzaga kelishini tasdiqlaydi.

N.A. Salanovich quyidagicha takidlaydi, tilni o‘rganishni mamlakatshunoslik bilan birga olib borish talabalardagi o‘qishga nisbatan nihoyatda kuchli qiziqishni uyg‘otadi hamda muloqot jarayonida zamonaviy o‘qitishdagi til, xalq madaniyati, mamlakatshunoslik tarixi, an’analarga oid to‘rt masalani hal etish imkonini yaratadi[7].

I. A. Zimnyaya tasnifiga ko‘ra va Evropa Kengashi tavsiyasiga muvofiq, ijtimoiy-madaniy kompetensiya ko‘p madaniyatli jamiyatdagi hayot bilan bog‘liq kompetensiya, ya’ni «odam bilan ijtimoiy soha o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlashuvlarga taalluqli» kompetentlik guruhidir[8]. Demak, ijtimoiy-madaniy kompetensiya umummadaniy va ijtimoiy kompetensiyalar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Madaniyatlararo muloqot komponentlikni rivojlantirishdan maqsad:

- chet el madaniyatida kompetentlikka erishish;
- o‘z madaniyatini bilish va bu haqida so‘zlab bera olish;
- o‘zgalarni hurmat qilish va bag‘rikenglikka olib keluvchi madaniyatlararo tushunishga erishish;
- o‘zining va o‘zgalar madaniyatini tahlil qila olish qobiliyatiga ega bo‘lish.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyani quyidagicha ta’rifladik: madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi – chet tilida muloqot olib boruvchi shaxsning til sohiblarining ijtimoiy va nutqiy xulq-atvorining milliy-madaniy xususiyatlari, ularning urf-odatlari, muomala qoidalari, tarixi va madaniyatidan xabardor bo‘lishi

hamda muloqot jarayonida ana shu bilimlardan foydalangan holda o‘zga madaniyatlar vakillari bilan muvaffaqiyatli ravishda muloqotlashish qobiliyatini namoyon qila olish layoqatidir.

Haqiqatdan ham, inglizcha so‘zlarni nutqda to‘g‘ri qo‘llash uchun ta’lim oluvchilar u haqda avvalo tasavvur va tushunchalarga ega bo‘lishi kerak. Shundan kelib chiqqan holda, chet tili darslarida kursantlarga o‘rganilayotgan til mamlakati haqidagi quyidagi ma’lumotlar bilan tanishish tavsiya etiladi:

- mamlakatlarning geografik joylashuvi va tabiiy sharoitlari;
 - davlat tuzumi; mamlakat madaniyati va uning dunyo madaniyatiga qo‘shgan hissasi;
 - davlat harbiy sohasi va faoliyati;
 - harbiylarning maishiy yashash va dam olish tarzining tashkil etilishi;
 - harbiy ta’lim tizimi va muassasalari haqida ma’lumotlar; bayramlar, an’analar, muhim ahamiyatga ega sanalar;
 - harbiy sohadagi nutqiy etiket va muomala borasidagi o‘ziga xos xususiyatlar.
- Bu lingvomamlakatshunoslikka oid bilimlarni muqobilsiz leksika va uning ona tilida ifodalanishlari, autentik matnlarning madaniyatshunoslikka oid (ya’ni madaniy) belgilari, til sohiblarining nutqiy muomala qoidalarini o‘z ichiga oladi. Mazmun jihatidan bunday muloqot quyidagi mavzularni qamrab oladi: o‘rganilayotgan til mamlakati, harbiy sohasiga oid oila, harbiy ta’lim maktablari, harbiylarning bo’sh vaqtлari(hordiq), harbiylar hayotida sport, harbiy shaharchalar va uning diqqatga sazovor yerlari, sayohat, kasb tanlash, tabiat va ekologiya, madaniyat va san’at, mashhur harbiy kishilar, milliy bayramlar, an’analar va boshqalar.

Yana shuni aytishimiz kerakki, tili o‘rganilayotgan mamlakat madaniyati haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda talabalarning ona tili, unda aks etgan ijtimoiy-madaniy muhitdagi omillar ham asosiy ahamiyatga ega.

Cholevki “til sohiblari har doim ham chet tilda so‘zlashuvchilar uchratadigan lisoniy qiyinchiliklarga e’tibor qaratavermaydilar. Biroq aynan shular, bu tili o‘rganilayotgan mamalakatda o‘qishga yoki ishga joylashishida hal qiluvchi omil bo‘la olishi mumkin” deb ta’kidlaydi[8]. Shuning uchun ham biz kursantlarga til

o‘rgatish jarayonida aynan shu masalaga alohida e’tibor qaratmog‘imiz lozim, ya’ni aynan lisoniy qiyinchiliklarni bartaraf etishimiz kerak.

Madaniyatlararo muloqot kompetentlik sohasiga shu bilan bir qatorda pedagogik muloqotni tashkil qilish va aniq pedagogik vaziyatni hisobga olish ham kiradi, bu bor imkoniyatlardan foydalana bilish, o‘rganilayotgan til mamlakatiga xos nutqning alohida oborotlaridan(tuzilmalar), nutqiy muloqotning o‘ziga xos qoidalardan foydalanishni bilish, ya’ni urf-odatlar, madaniyat ta’siridan dalolat beruvchi tilning o‘ziga xos belgilaridan o‘rinli foydalana olish layoqatidir. O‘qitishning madaniy vositalari tilning tabiiy me’yorlarini o‘zlashtirishga, o‘rganilayotgan til sohiblarining an’analari va urf-odatlarini tushunishga, yot mentallik va til vositalarini o‘rganishga yordam beradi. Ijtimoiy me’yorlar xushmuomalalik qoidalari, turli avlod, jins, ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi muloqot me’yorlari, jamiyatda qabul qilingan ayrim marosimlarning til orqali mustahkamlanishiga qaratilgani bois, madaniyatlararo muloqot kompetentligi turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi muloqotning lisoniy shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Chet tilini o‘qitishda ijtimoiy-madaniy yondashuvni tatbiq etish talabalarning chet tilni o‘zlashtirishlarida faollashuviga olib keladi. Talaba o‘zga xalqning milliy madaniyati va qadriyatlarini o‘zlashtirishi jarayonida shuningdek, tili o‘rganilayotgan mamlakat haqidagi bilimlarni ham mustahkamlaydi. Demak, tili o‘rganilayotgan mamlakat aholisining turmush tarzi, urf-odatlari, milliy madaniyati va tabiatini bilan tanishtirib borish ikki tomonlama murakkab integrar jarayon bo‘lib, bunda nafaqat tili o‘rganilayotgan mamlakat aholisining, balki ayni paytda o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtning urf-odatlari, o‘z xalqining milliy madaniyati ham qiyoslab o‘rganib boriladi va zarur hollarda chet mamlakat xalqiga taqdim qilinadi. Shuning uchun ham bu, o‘zi bilmagan holda bir-biridan andoza olish tili va madaniyatlarini boshqa-boshqa bo‘lgan xalqlar o‘rtasida tez-tez uchrab turadigan hodisadir. Qiyoslash davomida talabalar ko‘plab umumiy bo‘lgan va o‘ziga xos belgilar, xususiyatlarni ajratadilar. Bu esa o‘sha mamlakat bilan yaqinlashish, uni tushunish va unga, uning odamlari, an’analariga yaxshi munosabatda bo‘lishga yordam beradi.

Chet tilini o‘qitishda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi tili o‘rganilayotgan mamlakatning udumlari, an’analari haqidagi bilimlar asosida shakllanadi. Bunda nutqiy muloqot harakatlaridagi kommunikativ hulq-atvor haqidagi bilimlar va ko‘nikmalar; verbal va noverbal hulq-atvor ko‘nikma va malakalari milliy madaniyat mazmunini tashkil qiladi. Ijtimoiy-madaniy bilimlar va ko‘nikmalarni shakllantirish lingvomamlakatshunoslik va mamlakatshunoslik bo‘yicha bilimlar hajmini tanlangan kasb xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yangi mavzu va nutqiy muloqot muammolari hisobidan kengaytirish demakdir.

Shunday qilib, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi madaniyat, falsafa, etnolingvistika, tarix, adabiyot, geografiya va mamlakatshunoslikka oid ma’lumotlarga asoslangan holda sotsiolisoniy komponentning shakllanishiga yordam beradi. Demak, bu komponent jamiyatshunoslik, tilshunoslik, mamlakatshunoslik sohalaridan olingan bilimlarni umumlashtirishga, etnomadaniy umumbashariy madaniyat bilan tanishtirishga asoslanadi. Turli xalqlarning o‘ziga xos madaniyatining qadriyatlari hamda ularning jahon madaniyati taraqqiyotiga qo‘sghan hissasi nuqtai-nazaridan o‘rganishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хомский Н. Язык и мышление / Н.Хомский. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1972. – 122 с.
2. White R.W. Motivation Reconsidered: the Concept of Competence // Psychol. Rev. - 1959. - Vol. 66, N 5. - P. 297-332.
3. Равен Джон. Компетентность в современном обществе. Выявление, развитие и реализация. – М., 2002.
4. Hymes, D. (1972). “Competence and Performance in Linguistic Theory”, in R.Huxley and E.Ingram (eds.) Language Asquisition: Models Bed Methods. New York: Academy Press, pp.3-23.
5. Tetina S. V. Competence model of foreign language teacher in the conditions of the introduction of the professional standard for teacher.

6. Елизарова Г.В. Культура и обучение иностранным языкам. -СПб.: КАРО, 2005. 352 с.
7. Song, Li. (2009). Teaching English as intercultural Education Challenges of Intercultural Communication". Intercultural Communication Research. Vol.1., 268p.
8. Richards, J.C. and Rodgers, T.S. (1986). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press.